

## ABDULLA ORIPOVNING HAYOT FALSAFASIGA YO‘G‘RILGAN SHE‘RLARI

**Ko‘chiyeva Shabnam**

Termiz davlat universiteti, o‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

### ANNOTATSIYA

*O‘zbekning erka shoiri. O‘zbek xalqining milliy tiklanishi uchun kurashda Abdulla Oripovning o‘rni. Davrning katta gaplarini ajib misralarda tasvirlashi. O‘zligini anglagan o‘zbekning o‘ktam ovozi.*

**Kalit so‘zlar:** *she‘riyat, falsafa, ayol, hurfikrlik, obraz, beshik, dor, jallod, ko‘ngil nidosi, sadoqat, vafo shevasi*

O‘zbekiston- shoirlar yurti. Abdulla Oripov esa o‘zbekning erka shoiridir. She‘riyatni bog‘ga qiyoslasak, o‘ziga xos teran fikr, betakror qobiliyat, o‘chmas iste‘dod egasi bo‘lgan Abdulla Oripov ushbu bog‘ning eng ko‘p va sevilib tanovul qilinadigan mevasidek go‘yo. She‘riyat ixlosmandlaridan tortib toki oddiy, she‘riyatdan bexabar omi odamlar ham shoirimiz yozgan she‘rlarni katta qiziqish bilan mutolaa qiladi. Buning sababi nimada?! Buning sababi shundaki, shoir tili sodda va o‘z o‘rnida ravon, xalqchil, hammaga birdek ta’sir etish xususiyatiga ega.

O‘zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she‘riyati katta o‘ringa ega. Shuning uchun ham mustaqilligimizning yetti yilligida u kishiga birinchilardan bo‘lib “O‘zbekiston Qahramoni” degan yuksak unvon berildi.

Shoir diniy, ijtimoiy, falsafiy yo‘sinda birdek qalam tebratgan. She‘rlari muhabbat, nafrat, sadoqat, sog‘inch, hurmat, fidoyilik, iztirob, umid, afsus, achinish, alam kabi tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan. Bu esa shoir ijodining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Zamondoshlari tomonidan:”Abdulla aka haqida so‘z

ketganda o‘zbekning tanti va jaydari farzandi ko‘z oldimizga keladi, u- hamisha tarixiy. Zotan, shoir o‘z xalqining ovozi, uning orzu-umidlari va inson qalbi iztiroblarining ifodasichisidir”,-deya ta’riflangan edi ijodkor.

Abdulla Oripov ijodiga to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘zining ijtimoiy mavzudagi “Yuzma yuz”, “Temir odam”, “Uyqu”, “Dengizga” kabi she’rlarida davrimizning katta gaplarini ajib misralarda ayta olgan.

“Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,  
Sen ona emassan, jallodsan,dunyo”.

Ushbu misralar “Munojot” she’rining asl mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu she’r “asrlar g‘amini kuylovchi” o‘sha mashhur “Munojot” kuyi ta’sirida falsafiy ruhda bitilgan. Har bir misrasi esa o‘quvchini chuqur xayolga toldirishi shubhasiz.

“Eshilib, to‘lg‘anib ingranadi kuy  
Asrlar g‘amini so‘ylar “Munojot”.  
Kuyi shunday bo‘lsa, g‘amning o‘ziga  
Qanday chiday olgan ekan odamzod”.

Shoirning qalb torlaridan taralgan ko‘ngil nidosi ifodalangan ushbu she’rda shoir hayotning achchiq haqiqatlari, dunyoning turfa jumboqlari haqida mulohaza yuritgan.

Abdulla Oripov “Ayol” she’rida ayollarni “vafo shevasi” deya ulug‘lagan. Bu o‘zgacha ta’rif. “O‘zini ming bitta bozordan olib, ming bitta bozorga solganlar”ga o‘rnak sifatida keltirilgan “qahramon jangchining sodiq bevasi”ga ehtirom sifatida shunday deydi:

“Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,  
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom”

yoki

“Shundaylar bo‘lmasa agar dunyoda,  
Bu qadar muhtaram bo‘lmasdi ayol”.

Bu bilan shoir ayollarning nechuk bu qadar muhtaram qilib e'zozlanishiga o'zining til va uslubi yordamida isbot keltirgan deyishimiz ham mumkin.

Zamonga katta umid bilan qaragan shoirimiz "Sarob" she'rida insoniy iztiroblar, umodlar, hayotga chanqoqlik va umidlarning erta xazon bo'lishi, sarosima girdobida qolgan qorishiq his-kechinmalarni tasvirlab bergan:

"Yuragimga bir mahallar kirgan tuyg'ular  
Endi sendan ketgaymiz deb so'raydi javob.  
Meni bir zum hol-jonimga qo'ymaydi ular  
Qo'ymaydilar, va'dalaring chiqdi deb sarob..."

Abdulla Oripov "Ajrim" she'rida chuqur hayot falsafasini ifodalagan. She'rda dunyoning yarmini sayr etgan o'g'lonning otasidan nima uchun dunyodan chin do'st topa olmaganini so'raydi. "Ota esa jim". Yana bir bor dunyo kezadi va vafo topa olmaydi. Sababini otasidan so'raganda, "ota hamon jim". Axiyri:

"- Nega savolimga bermaysiz javob?!  
O'g'lon turar edi nolakor, haqir.  
Ota javob qildi uh tortib shu tob:  
-Sen ham bor narsani qidir-da axir".

Ushbu she'rda ota va o'g'il obrazlari yordamida oddiygina hayot haqiqatini ko'rsatib bergan.

Shoirimiz ijodiga oid she'rlar va ulardagi ma'no nozikliklari bitmas tunganmasdir. "Sen qaydan bilasan..." she'rida olam sir-sinoatlari va insonning o'zi ham sirlarning siri ekanligini, "Ka'batulloh" she'rida ichki dardlariga Allohdan madad so'rashi, "Malak" she'rida muhabbatning sof va beg'ubor tuyg'u ekanligi, "Dunyo" she'rida esa dunyo va hayot haqidagi falsafalarini o'z she'rlarida tasvirlab bera olgan.

Abdulla Oripov- betakror iste'dod egasi, o'zligini anglagan o'zbekning o'ktam ovozi. U muayyan xalqning, ma'lum bir davrning qalbi va ruhiyatining ko'zgusi bo'la oladigan shoirdir. Mahmud Toir aytganidek: " Abdulla Oripov ijodi elparvarlik va fidoyilik mahsulidir".

**ADABIYOTLAR**

1. Oripov, A. *Tanlangan asarlar: To'rt jildlik. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.*
2. Oripov, A. *Hikmat sadolari: she'rlar. -Toshkent: "Fan", 1993.*